

---

## Kollejda targ'ibot tadbiri o'tkazildi

Bag'dod pedagogika kollejida "Kelajaging uchun ovoz ber!" shiori ostida targ'ibot tadbiri tashkillandi. Tadbirda, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Gulbahor Saidg'aniyeva hamda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi rahbari Islomjon Ahmedov Bosh qomusimizga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalarning mazmun-mohiyati yuzasidan ma'ruza qildirdi.

Pedagoglar va ushbu dargohda ta'lim olayotgan yoshlar referendum hamda uni o'tkazish bilan bog'liq muhim tashkiliy masalalar haqidagi savollariga batafsil javob oldilar.

Targ'ibot tadbiri yakunida, ishtirokchilar 30- aprel kuni o'tkaziladigan referendumda faol qatnashib, Vatanimiz kelejagi uchun ovoz berishga chaqirildi.

**Bag'dod tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2023-04-04 16:14:36